

**“Yangi O‘zbekiston” universiteti Ilmiy-texnik
kengashi yig‘ilishining 5-sonli majlis bayonidan**

KO‘CHIRMA

2025-yil 7-iyul

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: **B. Yuldashev** – innovatsiya va tadqiqot ishlari bo‘yicha prorektor, *Kengash raisi*

Ishtirok etganlar: **B. Axmedov** – o‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor v.b., *Kengash raisi o‘rinbosari*

B. Narzilloev – Ilg‘or tadqiqotlar instituti direktori, *a‘zo*

R. Karter – Akademik boshqarma boshlig‘i, *a‘zo*

A. Nazarov – Ilmiy-tadqiqotlar va sanoat bilan hamkorlikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, *a‘zo*

Sh. Mardonov – Ilmiy-tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i, *a‘zo*

M. Majidov – Yuridik byuro boshlig‘i v.b., *a‘zo*

B. Axmedov – Astronomiya instituti nazariy astrofizika kafedrası mudiri, akademik, *a‘zo*

K. Gulomov – Fizika-texnika instituti bosh ilmiy xodimi, akademik, *a‘zo*

S. Murodov – Ilmiy-tadqiqotlar bo‘limi yetakchi mutaxassisi, *Kengash mas‘ul kotibi*.

KUN TARTIBI:

1. Ilmiy unvonlar va ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar tuzish.

(Yuldashev, Axmedov, Narzilloev, Karter, Nazarov, Mardonov, Majidov, Axmedov, Gulomov, Yuldashev)

Yig‘ilish avvalida, innovatsiya va tadqiqot ishlari bo‘yicha prorektor, Ilmiy-texnik kengash (keyingi o‘rinlarda – Kengash) raisi **B. Yuldashev** kun tartibidagi masalani e‘lon qilib, tasdiqladi.

Bunga ko‘ra, “Yangi O‘zbekiston” universitetining (keyingi o‘rinlarda – Universitet) ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyati samaradorligini yanada oshirishga oid masalalar ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PQ–151-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yangi O‘zbekiston” universiteti faoliyatini strategik rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ning 6-bandida yuqori malakali mahalliy

va xorijiy professor-o'qituvchilar hamda olimlar tarkibini shakllantirish hamda ilmiy unvonlar va ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar tarkibini tasdiqlash vazifalari belgilangan.

Mazkur vazifalar ijrosi doirasida, yuqori malakali mahalliy va xorijiy professor-o'qituvchilar hamda olimlar tarkibi shakllantirildi. Shu bilan birga, Universitet ilmiy salohiyatidan kelib chiqib, fizika-matematika va texnika fanlari bo'yicha fan doktori hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi quyidagi ixtisosliklar bo'yicha Ilmiy kengash tashkil etish taklif qilinmoqda:

Fizika-matematika va texnika fanlari bo'yicha:

01.03.01 – "Astronomiya";

01.03.02 – "Kosmos fizikasi va astrofizika";

01.04.02 – "Nazariy fizika";

05.01.07 – "Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui";

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha:

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti;

08.00.13 – Menejment.

Bunda, iqtisod fanlari nomzodi bo'yicha tuziladigan ilmiy kengash tarkibini **11 nafar**, fizika-matematika va texnika fanlari bo'yicha tuziladigan ilmiy kengash tarkibini **21** nafar yuqori malakali mahalliy va xorijiy professor-o'qituvchilar hamda olimlardan iborat tarkibda shakllantirish taklif qilindi.

Shu bilan birga, tegishli ixtisosliklar bo'yicha ilmiy kengash qoshidagi **ilmiy seminar** va **malakaviy imtihon komissiyasi tarkibini** va **yetakchi tashkilotlar ro'yxatini** shakllantirish lozimligi qayd etildi.

Universitetda ilmiy unvonlar Ilmiy-texnik kengash tomonidan berilishi rejalashtirilayotganligi qayd etildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Universitet ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida, **Kengash qaror qiladi:**

1. Kun tartibidagi masalalar yuzasidan eshitilgan axborot ma'lumot uchun qabul qilinsin hamda bu boradagi takliflarga rozilik berilsin.

2. Yuqori malakali mahalliy va xorijiy professor-o'qituvchilar hamda olimlar tarkibi 1-ilovaga muvofiq shakllantirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. "Quyidagilar:

Ilg'or tadqiqotlar instituti huzurida fizika-matematika va texnika fanlari bo'yicha fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.03/07.07.2025.FM/T.192.01 raqamli ilmiy kengash;

“Yangi O‘zbekiston” universiteti huzurida iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/07.07.2025.I.192.02 raqamli ilmiy kengash tashkil etilsin.

4. Quyidagilar:

Ilg‘or tadqiqotlar instituti huzurida fizika-matematika va texnika fanlari bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.03/07.07.2025.FM/T.192.01 raqamli ilmiy kengash tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

“Yangi O‘zbekiston” universiteti huzurida iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/07.07.2025.I.192.02 raqamli ilmiy kengash tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Ilg‘or tadqiqotlar instituti huzurida fizika-matematika va texnika fanlari bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.03/07.07.2025.FM/T.192.01 raqamli ilmiy kengash qoshidagi:

01.03.01 – “Astronomiya” (fizika-matematika fanlari), 01.03.02 – “Kosmos fizikasi va Astrofizika” (fizika-matematika fanlari), 01.04.02 – “Nazariy fizika” (fizika-matematika fanlari) hamda 05.01.07 – “Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui” (fizika-matematika fanlari, texnika fanlari) ixtisosliklari bo‘yicha ilmiy seminarlar tarkibi 4-ilovaga muvofiq;

Malakaviy imtihon komissiyalarining tarkibi 5-ilovaga muvofiq;

yetakchi tashkilotlarning ro‘yxati 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6 “Yangi O‘zbekiston” universiteti huzurida iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/07.07.2025.I.192.02 raqamli ilmiy kengash qoshidagi:

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti” va 08.00.13 – “Menejment” ixtisosliklari bo‘yicha ilmiy seminarlarning tarkibi 7-ilovaga muvofiq;

Malakaviy imtihon komissiyalarining tarkibi 8-ilovaga muvofiq;

yetakchi tashkilotlarning ro‘yxati 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq Universitetda ilmiy unvonlar Ilmiy-texnik kengash tomonidan belgilangan tartibda beriladi.

Kengash mas‘ul kotibi



S. Murodov

Asliga to‘g‘ri
Ijro nazorati va
monitoring bo‘limi



Sh.A. Rahmatullayeva